O‘rinboyev Davlatjon Baxtiyorovich (Qo‘qon davlat unversiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc);
davlatjonurinboyev753@gmail.com; https://orcid.org/0009-0004-0632-7343)

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON QADRI MEZONLARI: MA’NAVIY-FALSAFIY ASOSLAR VA YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyoti kontekstida inson qadri, uning asosiy mezonlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy islohotlarning falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning "Inson qadri uchun" tamoyili asosidagi ma’-naviy-axloqiy asoslari, ularning inson kapitalini yuksaltirish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi roli yoritilgan. Empirik va nazariy manbalarni umumlashtirish asosida davlat va jamiyat munosabatlaridagi antropotsentrik transformatsiyaning ustuvor yo‘nalishlari va falsafiy-ijtimoiy indikatorlari ko‘rib chiqil-gan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat taraqqiyoti, inson qadri, ma’naviy-falsafiy asoslar, Yangi O‘zbekiston, antro-potsentrik yondashuv, inson kapitali, ma’naviy yuksalish.*

Ўринбоев Давлатжон Бахтиёрович (доцент Кокандского государственного университета, доктор философсии (DSc)

КРИТЕРИИ ДОСТОИНСТВА ЧЕЛОВЕКА В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА: ДУХОВНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ И ОПЫТ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В данной статье в контексте развития современного общества анализируются достоинство человека, его основные критерии, а также философская сущность социально-эконо-мических и духовных реформ. В исследовании освещены духовно-нравственные основы проводимых в Новом Узбекистане преобразований на базе принципа «Во имя достоинства человека», их роль в повышении человеческого капитала и обеспечении устойчивого развития. На основе обобщения эм-пирических и теоретических источников рассмотрены приоритетные направления и философско-социальные индикаторы антропоцентрической трансформации в отношениях государства и об-щества.*

Ключевые слова: *развитие общества, достоинство человека, духовно-философские основы, Новый Узбекистан, антропоцентрический подход, человеческий капитал, духовное возвышение.*

Urinboev Davlatjon Bakhtiyorovich (Associate Professor at Kokand State University, Doctor of Sciences in Philosophy)

CRITERIA OF HUMAN DIGNITY IN SOCIETAL DEVELOPMENT: SPIRITUAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS AND THE EXPERIENCE OF NEW UZBEKISTAN

Annotation. *This article analyzes human dignity, its primary criteria, and the philosophical essence of socio-economic and spiritual reforms within the context of modern societal development. The study highlights the spiritual and moral foundations of the reforms implemented in New Uzbekistan under the "For Human Dignity" principle, as well as their role in enhancing human capital and ensuring sustainable development. Based on the synthesis of empirical and theoretical sources, the priority directions and philosophical-social indicators of the anthropocentric transformation in state-society relations are examined.*

Keywords: *societal development, human dignity, spiritual and philosophical foundations, New Uzbekistan, anthropocentric approach, human capital, spiritual growth.*

Kirish. Bugungi kunda globallashuv, raqamlashish va jadal ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar fo-nida jamiyat taraqqiyotini baholashning an’anaviy falsafiy va sotsiologik mezonlari muhim konseptual o‘z-garishlarga duch kelmoqda. Uzoq yillar davomida jamiyat rivojlanishi va taraqqiyot darajasi asosan Yalpi ichki mahsulot (YIM) o‘sishi, sanoatlashish va moddiy infratuzilma ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanib keldi. Biroq texnokratik yondashuvning ommalashuvi va iqtisodiy resurslar markazlashuvi jamiyatda ma’naviy vayronkorlik, ijtimoiy tengsizlik hamda inson omilining vositaga aylanib qolishi kabi chuqur inqirozlarni keltirib chiqardi. Bu jarayon jahon falsafiy fikrida taraqqiyot fenomenini qayta ko‘rib chiqish va uning mar-kaziga aynan inson qadri, uning munosib turmush kechirishi, ehtiyojlari hamda ma’naviy-erkin rivojlani-shini qo‘yishni taqozo etdi. Inson qadri tushunchasi shunchaki huquqiy yoki ijtimoiy kategoriya bo‘lmay, fundamental ma’naviy-axloqiy va falsafiy mohiyatga ega. Klassik va zamonaviy falsafiy an’analarda inson shaxsi o‘zida oliy qadriyatni mujassam etgan yagona subyekt sifatida e’tirof etiladi. Shu nuqtayi nazardan, har qanday islohot yoki jamiyatdagi modernizatsiya jarayonlari insonning erkinligini cheklashga emas, ak-

sincha, uning ijodiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi lozim [1]. Zamonaviy jamiyatlarda aynan inson kapitalining rivojlanishi va ma'naviy yuksalish moddiy-texnik taraqqiyotning mustahkam poydevori sifatida namoyon bo'lmoqda

Yangi O'zbekiston davlat siyosati va ijtimoiy-falasafiy paradigmasida amalga oshirilayotgan fundamental islohotlarning konseptual o'zagini "Inson qadri uchun" tamoyili tashkil etadi [2]. Bu yondashuv davlat va jamiyat munosabatlarini klassik byurokratik modeldan antropotsentrik (inson markazlashgan) modelga o'tkazishning falsafiy manbayi bo'lib xizmat qilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida inson qadri va islohotlarning ma'naviy-falsafiy mutanosibligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-ma'naviy transformatsiyaning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish va inson markazlashgan taraqqiyot modelining ustuvor ko'rsatkichlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat taraqqiyoti, inson qadri va islohotlarning ma'naviy-falasafiy konsepsiyalari mahalliy va jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan turli rakurs va fundamental nazariyalar asosida faol tadqiq etib kelinmoqda.

Zamonaviy o'zbek falsafasi va jamiyatshunosligida inson qadri konsepsiyasi Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilayotgan ijtimoiy va institutsional o'zgarishlarning ma'naviy-falasafiy mohiyati mahalliy tadqiqotchilar tomonidan antropotsentrik va aksiologik yondashuvlar asosida atroflicha o'rganilmoqda.

Mahalliy tadqiqotchilar: Sh.M.Mirziyoyev o'zining fundamental asarlarida "Inson qadri uchun" tamoyilini shunchaki siyosiy konyunktura emas, balki davlat siyosatining va ijtimoiy islohotlarning oliy falsafiy mezoni sifatida asoslab beradi [3]. A.X.Saidov inson qadri fenomenini inson huquqlari va milliy qonunchilikning axloqiy poydevori sifatida tahlil qilib, davlatning bosh vazifasi insonning erkin rivojlanishi uchun huquqiy va ma'naviy kafolatlar yaratishdan iborat ekanini ko'rsatadi [4]. J.Tulenov va N. Jabborovlar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy mezonlarini tadqiq etib, texnokratik va iqtisodiy o'sish ma'naviy yuksalish bilan uyg'unlashmasa, jamiyatda qadriyatlar susayishi va pragmatizm yuzaga kelishini ilmiy asoslashadi [5]. M.Muhamedov va S.Otamurodovlar esa globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni saqlash masalalarini tadqiq qilib, inson qadrini e'zozlash mahalliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi orqali amalga oshishini ta'kidlashadilar [6]. Olib borilgan manbalar va nazariy-metodologik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional islohotlar tajribasi shunchaki pragmatik modernizatsiya jarayoni emas, balki global inson markazlashgan (antropotsentrik) nazariyalar va Sharqning milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimi sinergiyasining amaliy namunasidir. Bu holat jamiyatni modernizatsiya qilishda g'arbcha liberal va sharqona jamoaviy (jamoaviy axloq, oila, bag'rikenglik) modellarining uyg'unlashtirishni taqozo etib, islohotlarning ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarini fundamental va kompleks ilmiy-falasafiy tadqiq etishni taqozo qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning ijtimoiy-falsafiy tahlilning zamonaviy kompleks yondashuvlariga tayangan holda shakllantirildi. Tadqiqotda ijtimoiy taraqqiyot va inson qadri o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni ochib berish uchun quyidagi metodlar va ilmiy prinsiplardan foydalanildi.

Antropotsentrik va aksiologik yondashuv asosida, Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional transformatsiyalar inson manfaatlari, uning qadri va ma'naviy ehtiyojlari kontekstida tahlil qilindi. Mazkur yondashuv jamiyatni modernizatsiya qilishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ustuvorlik darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Qiyosiy-falasafiy va tarixiy-ma'naviy tahlil asosida, Sharq mutafakkirlarining komil inson va adolatli jamiyat haqidagi qarashlari zamonaviy islohotlarning "Inson qadri uchun" tamoyili bilan qiyosiy o'rganildi. Bu orqali tarixiy-ma'naviy meros va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi asoslandi.

Sinergetik va tizimli yondashuv asosida, jamiyat murakkab, o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida tadqiq etilib, unda ma'naviyat va inson qadri ijtimoiy barqarorlik hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi ichki regulator sifatida baholandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida "Jamiyat taraqqiyoti va inson qadri mezonlarining ma'naviy-falsafiy asoslari" doirasida amalga oshirilgan institutsional va ijtimoiy-ma'naviy transformatsiyalar tahlil qilindi. Olingan natijalar uchta asosiy konseptual yo'nalish bo'yicha guruhlandi:

Birinchidan, davlat va jamiyat munosabatlarining paradigmal transformatsiyasi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Yangi O'zbekistondagi islohotlarning dastlabki va fundamental natijasi - bu davlat boshqaruvi tizimining antropotsentrik (inson markazlashgan) modelga o'tishidir [7]. Byuro-kratik va texnokratik boshqaruvdan inson manfaatlarini ustuvor qo'yuvchi tizimga o'tish ijtimoiy muhit-ning ma'naviy-axloqiy indikatorlarini tubdan o'zgartirdi (1-jadval).

1-jadval

Davlat va inson munosabatlaridagi paradigmal o‘zgarishlar ko‘rsatkichi

Tahlil parametri	An’anaviy (Byurokratik) model	Yangi (Antropotsentrik) model	Ijtimoiy-ma’naviy effekti
Baholash mezoni	Faqat YIM va moddiy ko‘rsatkichlar	Inson qadri, farovonlik va ma-daniy yuksalish	Iqtisodiy va ma’naviy omil-lar muvozanati (sinergiya)
Boshqaruv tamoyili	“Davlat–jamiyat–inson”	“Inson – jamiyat – davlat”	Davlat organlarining jamiyat oldidagi mas’uliyati ortdi
Ijtimoiy muhit	Passiv ijrochilik va ku-tish pozitsiyasi	Faol fuqarolik jamiyati va ta-shabbuskorlik	Insonning o‘z hayoti va ja-miyatga nisbatan mas’uyati shakllandi
Institutsional muhit	Markazlashgan nazorat va byurokratiya	Xalq qabulxonalari, ochiqlik va raqamli jamoatchilik	Davlatga bo‘lgan ijtimoiy ishonch va muloqot madani-yati tiklandi


Ikkinchidan, islohotlarning ma’naviy-axloqiy vektorlari va inson kapitali. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, islohotlarning ma’naviy-falasafiy mazmuni uchta asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘yicha namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar ustivor yo‘nalishi doirasida kambag‘allikni qisqartirish va manzilli ij-timoiy himoya tizimining joriy etilishi inson qadrini toptab turgan iqtisodiy notenglik va nochorlikni bar-taraf etishning asosiy vositasiga aylandi [8]. Bu jarayon insonning jamiyatdagi axloqiy mavqeyini va o‘z-o‘zini qadrlash hissini tikladi.

•Ta’lim va inson kapitali ustivor yo‘nalishi doirasida maktabgacha, oliy va professional ta’lim tizi-midagi sifat o‘zgarishlari shaxsning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish orqali jamiyatning ma’naviy yuksalishini ta’minlamoqda [9]. Inson kapitali shunchaki iqtisodiy omil emas, balki axloqiy va ma’naviy yuksalishning poydevori sifatida namoyon bo‘ldi.

•Fuqarolik va bag‘rikenglik axloqi ustivor yo‘nalishi doirasida vijdon erkinligi, millatlararo totuvlik va mahalla institutining nufuzini oshirish orqali jamiyatda ijtimoiy jipslik hamda "jamoaviy mas’uliyat" madaniyati mustahkamlandi [10].

Uchinchidan, G‘arb va Sharq modellari uyg‘unlashuvining amaliy ko‘rinishi. Manbalar va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni umumlashtirish asosida Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan taraqqiyot modelining in-tegratsion tabiati ochib berildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, islohotlar jarayonida g‘arbcha universal guma-nistik qadriyatlar (huquqiy kafolatlar, shaxs erkinligi, innovatsiyalar) va sharqona ma’naviy kodlar (oilaviy axloq, mahalla instituti, jamoaviy bag‘rikenglik) o‘rtasida chuqur uyg‘unlashuv yuz berdi [11]. (2-jadval).

2-jadval



Ushbu uyg‘unlashuv jamiyatda texnokratik pragmatizm va konservativ yopiqlik xavfini bartaraf etib, barqaror va ma’naviy boy jamiyatning shakllanishiga xizmat qilmoqda

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma’na-viy va institutsional islohotlarning falsafiy-metodologik mohiyati hamda ularning jamiyatni modernizatsiya qilishdagi o‘rni ilmiy tahlil qilindi. Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, davlat va jamiyat munosabatlarida “Davlat– jamiyat–inson” modelidan “Inson – jamiyat – davlat” antropotsentrik tizimiga o‘tilishi islohotlarning bosh ma’naviy-axloqiy mezoniga aylandi. Bu jarayon davlat organlarining ijtimoiy mas’uliyatini oshirib, fuqarolik jamiyati vakillarining ijtimoiy faolligini rag‘batlantirdi.

Ikkinchidan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modeli g‘arbcha universal gumanistik qadriyatlar (inson huquqlari, xususiy mulk, innovatsiya va raqamlashtirish) hamda sharqona ma’naviy kodlar (mahalla instituti, oilaviy axloq, jamoaviy jipslik va bag‘rikenglik) sinteziga tayanadi. Ushbu uyg‘unlik jamiyatni texnokratik sovuqlik va konservativ yopiqlikdan himoya qiluvchi immunitet vazifasini o‘tamoqda.

Uchinchidan, knson kapitali va ma’naviyat uyg‘unligi: Ijtimoiy adolat va ta’lim sohasidagi islohotlar inson kapitalini faqat iqtisodiy omil sifatida emas, balki shaxsning axloqiy, intellektual va ma’naviy yuksalishini ta’minlovchi kompleks vosita sifatida namoyon etmoqda.

Tadqiqot natijalari va o‘rganilgan muammolar asosida jamiyat modernizatsiyasini yanada chuqurlashtirish va ma’naviy-axloqiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan. “Inson qadri” indikatorlarini baholash tizimini joriy etish doirasida davlat tashkilotlari va mahalliy hokimliklar faoliyatini baholashda faqat iqtisodiy-statistik ko‘rsatkichlar bilan cheklanmay, aholining ma’naviy farovonligi, ijtimoiy qoniqish darajasi va inson qadrini ta’minlash indeksini (Ijtimoiy indikatorlar) ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ikkinchidan. Mahalla va fuqarolik institutlarining ma’naviy-sotsiologik rolini oshirish maqsadida mahalla tizimini shunchaki ma’muriy-ijtimoiy yordam tarqatuvchi organ emas, balki aholi o‘rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtiruvchi, jamoaviy axloq va ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi nodavlat-institutsional markaz sifatida rivojlantirish.

Uchunchidan, zamonaviy “Inson va ma’naviyat” falsafiy-interdissiplinar tadqiqotlarini rag‘batlantirish maqsadida oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlari tutashuvida sun’iy intellekt, globallashuv va raqamlashtirish davrida insonning ma’naviy-axloqiy o‘zligini saqlab qalish bo‘yicha fundamental loyihalarni ko‘paytirish.

To‘rtinchidan, milliy va global axloqiy standartlarning ta’limdagi integratsiya qilish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim o‘quv dasturlariga yoshlarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini, shuningdek, global axborot xurujlariga nisbatan ma’naviy immunitetini mustahkamlaydigan “Inson va zamonaviy aksiologiya” maxsus modullarini kiritish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). UNESCO (2022). Reimagining our futures together: A new social contract for education. UNESCO Publishing, p. 41–49.

(2). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022, 25–26-betlar.

(3). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022, 38–48-betlar.

(4). Saidov A.X. Inson qadri va inson huquqlari: milliy va global aspektlar. Toshkent, “Adolat”, 2023, 67–78-betlar.

(5). Tulenov J., Jabborov N. Falsafa va jamiyat taraqqiyoti: ma’naviy-axloqiy mezonlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2021, 112–124-betlar.

(6). Muhamedov M., Otamurodov S. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy yuksalish. Toshkent, “Akademiya”, 2020, 45–56-betlar.

(7). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022, 50–62-betlar.

(8). Saidov A.X. Inson qadri va inson huquqlari: milliy va global aspektlar. Toshkent, “Adolat”, 2023, 80–89-betlar.

(9). Tulenov J., Jabborov N. Falsafa va jamiyat taraqqiyoti: ma’naviy-axloqiy mezonlar. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2021, 130–138-betlar.

(10). Xolbekov A.J. Ijtimoiy transformatsiya va boshqaruv sotsiologiyasi. Toshkent, “Universitet”, 2021, 145–156-betlar.

(11). Quronov M. Ijtimoiy pedagogika va jamiyat ma’naviyati: nazariya va amaliyot. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022, 95–104-betlar.

(12). Muhamedov M., Otamurodov S. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy yuksalish. Toshkent, "Akademiya", 2020, 60–72-betlar.